



NARSA-PREDMET OTI ASOSIDA SHAKLLANGAN FRAZEMALARNING LINGVOMADANIY JIHATLARI

Botirova Rayxona Abdurofiq qizi

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Tel: +998 (93) 303-22-15

E-mail: rayxonabotirova39@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada narsa-predmet oti asosida shakllangan iboralarning asosiy xususiyatlari, boshqa frazemalardan ajralib turuvchi tomonlari va lingvomadaniy jihatlari aniqlangan. Shuningdek, oʻzida millat madaniyatini aks ettiruvchi iboralarning qanday vosita va obrazlar asosida hosil boʻlishi ham aniq misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: narsa-predmet oti qatnashgan iboralar, milliylik, semantik tahlil, leksema, til va madaniyat.

Аннотация. В статье определены основные особенности, отличительные стороны и лингвокультурологические аспекты словосочетаний, образованных на основе названия предмета. Также на основе конкретных примеров анализируется, на основе каких средств и образов образуются выражения, отражающие культуру нации.

Ключевые слова: выражения с именем предмета, национальность, семантический анализ, лексема, язык и культура.

Abstract. The article identifies the main features, distinctive features, and linguocultural aspects of phrases formed on the basis of the noun of an object. Also, based on specific examples, the formation of expressions reflecting the culture of the nation on the basis of means and images is analyzed.

Keywords: phrases containing the noun of an object, nationality, semantic analysis, lexeme, language and culture.

KIRISH.

Tilshunoslikda iboralarni semantik-struktur tahlil qilish muhim ahamiyatga ega boʻlib bormoqda. Ushbu jihatdan somatik, zoonimik va harakat-holatni ifodalovchi leksemalar shakllantirgan frazemalar faol tadqiq qilinmoqda. Narsa-predmet oti qatnashgan iboralar ham oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib, til va madaniyatning chambarchas bogʻliq ekanligini ifodalaydi. Bunday iboralarni tahlil qilish va oʻrganish frazeologizmlarning bir qator xususiyatlarini aniqlashda muhim vositadir. Mazkur iboralar shakllanishini kishilar tasavvurining narsa-predmet nomlarida yangi semalar hosil qilishining bir koʻrinishi sifatida qarash mumkin. Frazeologizmlarning muayyan guruhi xalqlarning urf-odatlarini, anʼanalari va irimlari taʼsirida shakllanadi.[Usmonova, 2019, 93]Narsa-predmet oti qatnashgan iboralarda xalqning turmush tarzi, dunyoqarashiga mansublik belgisini oʻzida koʻproq namoyon qilib turadi, tilda xalq madaniyatining akslanishini boshqa tur iboralarga nisbatan yaqqolroq koʻrsatadi. “sariq chaqaga olmaslik”, nogʻorasiga oʻynamoq, “toʻnini teskari kiymoq”, “gʻalvirni suvdan koʻtarmoq” kabi iboralarda oʻzbek xalqining madaniy hayoti va turmush tarziga aloqador soʻzlar semantik tayanch komponent boʻlib kelgan.

Masalan, “bir mayizni teng boʻlib yemoq” iborasi “bir mayizni qirq kishi boʻlib yemoq” iborasining qisqartirilgan varianti boʻlib, ahil, inoq boʻlmoq[OʻTFL, 2022, 83] maʼnolarini bildiradi. Ushbu ibora mayizning xalqimizda asosiy yegulik boʻlibgina qolmay, ajdodlardan meros qolgan ahillik, birdamlikning oʻziga xos timsoli boʻlib qolganligini ifodalamoqda:

— Ular doʻst emas... Bobom kitobdan oʻqib bergan edilar, esingizdami: «Doʻstingni yengilroq sevginki, kuni kelib, dushman boʻlib qolishi ham mumkin». Doʻstlaringiz shunday boʻlib chiqdi.

— Unday dema. Vaqti kelganda ular bilan bitta mayizni boʻlishib yeganman. Bu... tasodif boʻldi. Oʻldirish



niyatlari yo‘q edi.[T. Malik]

“Nonini yarimta qilmoq” frazemasi esa tirikchilik uchun zarur ayrim narsalardan mahrum qilmoq[O‘TFL, 2022, 329] ma’nosini ifodalaydi. Non so‘zi bir necha ko‘chma ma’nolarga ega bo‘lib, taom, tirikchilik va boylik ma’nolarini ifodalaydi:Yozadiganlarning bittasi do‘xtir. O‘zim borib gaplashdim o‘sha bilan. «Baraka topgur, Moshtabib sening kasallaringni tortib olib, *noningni yarimta qilayotgani yo‘q*. Sen qorin do‘xtir bo‘lsang, u sindi-chiqdiga qarasa, qo‘y endi», desam, «Sen feodalizm sarqitini himoya qilyapsanmi, sen ilg‘or Sovet meditsinasining naq dushmani ekansan», deb basharamga dangal aytdi.[T. Malik]

O‘zbek tilida “non” leksemasi bilan shakllangan “non ursin”, “non urmoq” iboralari ham bor bo‘lib, nonni o‘rtaga solib qasam ichishni[O‘TFL, 2022, 328] bildiradi. Yuqorida ko‘rilgan “nonini yarimta qilmoq” iborasida non leksemasi tirikchilik semasini ifodalagan bo‘lsa, ushbu iborada ardoqlilik, muqaddaslik semasi bilan anglashilib turibdi:

— Nonlarimni sen olgansan. Nega olding? Oyimga yig‘ayotganimni aytuvdim-ku?

— Noningga tekkanim yo‘q, — dedi Kesakpolvon chiyillab, — olgan bo‘lsam *non ursin!*

— Poylab yurganingni ko‘rganman, — dedi bola bo‘sh kelmay. — Nonlarimni qaytarib ber. [T. Malik]

Kishilar o‘ziga eng ardoqli, aziz narsalarini tilga olib qasam ichadilar. Demak, “non ursin” iborasi nonning xalqimizda qadriyatga aylanganligini ko‘rsatadi.

Narsa-predmet oti qatnashgan iboralar asosan ot+fel (“hamtovoq bo‘lmoq”, “yoqa ushlamoq”), ot+ot+fel (“og‘zidagi luqmani oldirib qo‘ymoq”), ot+sifat+ot+fel(“qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirmoq”), ot+fel+ot+fel(“pichoq borib suyakka qadalmoq”) ko‘rinishlarida keladi. Bunday iboralar xalqning urf-odatlarini ham bildirib keladi. Masalan, “osh bermoq” iborasi to‘y-marosim munosabati bilan katta qozonda palov damlatib, ziyofat o‘tkazmoq ma’nosini bildiradi[O‘TFL, 2022, 381].

— Ha, xudoyi qilmoqchimisan? — deb so‘radi Kesakpolvon Asadbekdan.

— Shunga boshim qotib turibdi. Bir nima qilish kerak-ku? Anavi kuni, Jalildan so‘rovdim. *Osh-posh bersammi*, desam bobilladi. «Nevarang o‘lik tug‘ilganiga quvonib *osh berasanmi?*» deydi. Shunga hayron bo‘lib Mahmudga «domlangdan so‘rab ko‘r» devdim. [T.Malik]

Narsa-predmet oti qatnashgan iboralar o‘zbek xalqining kundalik hayotida ishlatiladigan kiyim-kechaklar, ro‘zg‘or buyumlari va shu buyumlar bilan bog‘liq bo‘lgan mashg‘ulotlarni anglatadigan leksemalar bilan ham shakllanadi. Bu o‘rinda “do‘ppi tor keldi” frazemasini misol keltirishimiz mumkin:Yigitali soddaligiga borib, tuhmat balosidan butunlay qutuldim, deb o‘ylayotgan edi. Bu sohani ipidan-ignasigacha yaxshi biluvchi Zelixon esa *do‘ppi tor kelib qolib*, aybdorlar topilmasa, yana Yigitaliga yopishishlari mumkinligini his etdi. [T. Malik]

“Jilovni bo‘sh qo‘ymoq” xatti-harakatini tejab-tergamay, o‘z ixtiyoriga tashlab qo‘ymoq [O‘TFL,219]ma’nosini ifodalaydi:Asadbek a‘yoniga bir oz tikilgach, afsuslangan odam kabi uf tortib, bosh chayqadi-da:

— Bollaring bebosh bo‘lib ketdi. *Jilovni ja-a bo‘sh qo‘yvording*, — dedi.

Kesakpolvon ham afsuslangan odam kabi iyagini kafti bilan silab:

— Men emas, — dedi. — Bek, xafa bo‘lmasin-u, Mahmud bo‘sh qo‘yvordi. Mayli, yer yetkazmasin-u, lekigin, ko‘ngli bo‘sh bo‘lib qoluvdi ukaxonning. [T.Malik]

Xulosa. Shunday qilib, narsa-predmet oti asosida shakllangan frazemalar tilning frazeologik sathida alohida o‘rniga egaligi aniq misollar yordamida ayon bo‘ldi. Ushbu frazemalarning semantik maydoni keng hamda turli tushunchalarni ifodalashini ko‘rib o‘tdik. Bunday iboralarni tahlil qilish xalqning madaniy hayotini va dunyoqarashini tasavvur qilishga, shuningdek tilshunoslikda frazemalarning lingvistik va madaniy hayotdagi ahamiyatini ham tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Sh.Rahmatullayev va boshqalar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 bet.
2. Abdullayeva M. Milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlar tarjimasini muammolari. Fil.fan. dok. diss. avtoreferati, –Toshkent, 2023, -56 b.
3. Ёўлдошев Б. Ёўбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. – Т.: “Муҳаррир” нашриёти. 2013.-



300 б.

4. Shoiri Usmanova. Lingvokulturologiya. –Toshkent, 2019. -248 b

?? Ахмедова, А. Х. (2020). Продуктивные и непродуктивные модели образования новых слов. *polish science journal*, 318.

?? Khusenovna, A. A. Occasionalism as A Phenomenon of Word Creation in the Light of MEDIA Discourse. *American Journal of Business Management, Economics, and Banking*, 23, 227-232.

?? Ахмедова, А. Х., & Сайдуллаева, З. (2023). Грамматические ошибки в текстах современных русских песен. Ответственный редактор: НВ Карповская Редколлегия, 114.

?? Ахмедова, А. Х. (2020). ОСОБЕННОСТИ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ГНЁЗД С ВЕРШИНОЙ НЕОЛОГИЗМОМ (НА МАТЕРИАЛЕ «СЛОВАРЯ ПЕРЕМЕН» М. ВИШНЕВЕЦКОЙ). In *МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 17-22).

?? Ахмедова, А. Х. (2019). РАЗВИТИЕ ДЕРИВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА ЗАИМСТВОВАННЫХ НЕОЛОГИЗМОВ. *Студенческий вестник*, (37-1), 8-10.

¹ Яхшиев, А. А. (2010). Синтактико-текстовая экспрессия как лингвистическая категория (на материале немецкого языка). *Вестник Челябинского государственного университета*, (29), 174-176.

¹ Yaxshiyev, A. (2022). The Contextual-Explicit Possibilities Of Variation Of The Phraseological Unit (Phe) In National Speech. *Journal of Positive School Psychology*, 6(9).

12. Бушуй, А. М., & Яхшиев, А. А. (1986). Фразеология узбекской диалогической речи (на материале художественной прозы). *Сов. тюркология*, 3, 27-33.